



ONLAYN MEDIADA MA'LUMOTLAR BILAN ISHLASHDA SUN'IY INTELEKT AHAMIYATI

Zoxir Toshxujayev,
O'zJOKU "Raqamli media va internet jurnalistika"
kafedrası o'qituvchisi
zohirbek1979@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20603884>

Annotatsiya. *Jurnalistikaga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi jamiyatda axborot almashinuvini tartiblariga jiddiy ta'sir o'tkazib kelmoqda. An'anaviy ommaviy axborot vositalari deb bilganimiz – matbuot, radio va televideniye faoliyati har tomonlama internet va zamonaviy kommunikatsiya vositalariga integratsiyalashib bormoqda. Internetning ommalashishi natijasida yuzaga kelgan onlayn media butun axborot makonini qarab oldi. Ushu ilmiy maqolada axborot yig'ish va uni qayta ishlashda zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt fhamiyati qalamga olinadi.*

Kalit so'zlar: *media, axborot, kommunikatsiya, internet, sun'iy intellekt, jurnalistika.*

Аннотация. *Проникновение современных технологий в журналистику оказывает существенное влияние на процессы обмена информацией в обществе. Традиционные средства массовой информации — печатная пресса, радио и телевидение — всё более активно интегрируются с интернетом и современными коммуникационными технологиями. В результате широкого распространения интернета онлайн-медиа заняли ведущее место в глобальном информационном пространстве. В данной научной статье рассматривается значение современных технологий, в частности искусственного интеллекта, в процессах сбора и обработки информации.*

Ключевые слова: *медиа, информация, коммуникация, интернет, искусственный интеллект, журналистика.*

Abstract. *The integration of modern technologies into journalism has significantly influenced the processes of information exchange in society. Traditional mass media — including print press, radio, and television — are increasingly being integrated with the Internet and modern communication technologies. As a result of the widespread adoption of the Internet, online media have come to dominate the global information space. This scientific article examines the role of modern technologies, particularly artificial intelligence, in the processes of information gathering and information processing.*

Keywords: *media, information, communication, Internet, artificial intelligence, journalism.*

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda dunyo media makonida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bunga asosiy sabab – raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, internetning keng ommalashuvi, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt kabi ilg'or texnologiyalarning inson hayotining ajralmas qismiga aylanishidir. Bu jarayonlar natijasida "media" tushunchasi ham o'z mazmun va shakl jihatidan tubdan yangilandi.

Bugungi kunda "zamonaviy media" nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki ijtimoiy ong, madaniyat, siyosat va iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kuchli kommunikatsiya tizimiga aylangan. Sun'iy intellekt jurnalist va content ishlab chiqaruvchilarning ishini yengillashtirib, zamonaviy media muhitda axborot almashinuvini



tez va sifatli amalga oshirishga yordam beradi. Lekin SI inson ijodkorligi, axloqiy mulohazasi, intuitsiya va ijodiy qobiliyatini to'liq bosa olmaydi. Shu bois ham, SI va inson-jurnalistlar hamkorligi zamonaviy media rivojining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy media bugungi axborot asrining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan, axborotni yaratish, uzatish va iste'mol qilish jarayonlarini tubdan o'zgartirgan murakkab, ko'p funksiyali va interaktiv tizimdir. Bu atama faqat internet orqali faoliyat yurituvchi nashrlarni emas, balki raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, algoritmlar, ijtimoiy tarmoqlar va foydalanuvchi ishtirokiga asoslangan butun bir axborot tizimi va muhitini anglatadi.

An'anaviy ommaviy axborot vositalari har doim jamiyatni axborot bilan ta'minlashning asosiy manbai bo'lib kelgan [1]. Zamonaviy media deganda esa, eng avvalo, an'anaviy ommaviy axborot vositalari – matbuot, radio va televideniya bilan farqli ravishda, internet tarmog'i orqali faoliyat yurituvchi raqamli nashrlar, bloglar, podkastlar, YouTube kanallari, Telegram va Instagram sahifalari tushuniladi. Ammo bu shunchaki yangilik tarqatiladigan platformalarning nomi emas, balki yangicha fikrlash, yangicha jurnalistlik uslub, yangicha auditoriyaga murojaat qilish madaniyati hamdir. Bugungi kunda axborot oqimlari favqulodda tezlikda yangilanmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy internet jurnalistikasi faoliyati tezkorlik, aniqlik, real vaqtda monitoring qilish, maqsadli auditoriyani aniqlash, anglash va unga mos kontent tayyorlashni talab etadi. Shu bois jurnalistlar va media mutaxassislarining asosiy vazifalaridan biri – katta hajmdagi ma'lumotlar oqimidan dolzarb, ishonchli va ommaga qiziqarli axborotni tanlab olish va uni tahlil qilishdir.

Bunday murakkab va ko'p bosqichli jarayonda sun'iy idrok texnologiyalari nihoyatda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda [2]. Shaxsiy tajriba va kuzatuvlardan ma'lumki, an'anaviy jurnalistikada axborot yig'ish jarayoni asosan inson mehnatiga tayanadi. Jurnalstning o'zi kerakli manbalarni izlaydi, yangiliklarni topadi, fakt qidiradi, intervyu oladi, bir so'z bilan aytganda, o'zining e'lon qiladigan materiali uchun axborot bazasini asos o'zi yaratadi. Bu jurnalistdan ko'p vaqt va katta kuch talab qiladi.

So'nggi yillarda sohaga internet, yangi kommunikatsiya vositalari, zamonaviy texnologiyalar va ayniqsa sun'iy idrokning jadal kirib kelishi natijasida bu jarayon sezilarli darajada avtomatlashtirilib, optimallashtirilmoqda [3].

Sun'iy intellekt bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri shvetsiyalik olim Nik Bostrom shunday deydi: "Sun'iy intellektni yaratish insoniyat tarixidagi eng muhim va eng xavfli hodisalardan biri bo'lishi mumkin" [4].

Bostromning fikriga ko'ra, texnologik yuksalish insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. Sun'iy intellekt yordamida tibbiyot, ta'lim, sanoat, transport, sport va



boshqa sohalarda misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishish mumkin. U insonlarning hayotini yengillashtiradi, ko‘plab muammolarni hal etishda yordam beradi. Biroq, sun‘iy intellekt nazoratdan chiqsa yoki noto‘g‘ri maqsadlarda qo‘llanilsa, jiddiy tahdidlarni keltirib chiqarishi ehtimoli ham bor.

Endilikda axborotni to‘plash, saralash, tahlil qilish, yangiliklarga oid asosiy faktlarni ajratib olish kabi murakkab jarayonlarni sun‘iy idrok vositalari orqali bajarish mumkin. Sun‘iy intellekt tizimlari internet sahifalaridagi yangiliklar, hukumat portallari, statistik ma‘lumotlar bazalari, ijtimoiy tarmoqlar va bloglarni avtomatik kuzatish imkonini beradi [5].

Masalan, o‘zbek onlayn mediasidagi deyarli barcha sport saytlari sun‘iy intellekt xizmatlaridan keng foydalanib kelmoqda. Xususan, o‘zbek media makonidagi eng yirik sport manbalari – sports.uz, championat.asia, stadion.uz saytlari musobaqalar jarayonlari, anonslar, natijalar, jadvallar, statistikalarni onlayn tarzda uzatishni to‘liq avtomatlashtirgan.

Bu xususiyatni asosan sport saytlarida ko‘rish mumkin va axborot yoki tahliliy kontentga ixtisoslashgan boshqa sayt va portallar sun‘iy intellekting bu funksiyalaridan deyarli foydalanmaydi. Biroq aksariyat elektr on maviy axborot vositalari sun‘iy idrokni saytlardagi sarlavhalar, sanalar, joy nomlari va asosiy so‘zlarni aniqlab, tahlil qilinadigan matnlar bazasiga kiritishda, turli tillarga tarjima qilishda, visual infografikalar yaratishda ishlatadi.

Shuningdek, RSS lentalar orqali ham yangiliklar doimiy kuzatib boriladi. Ya‘ni, jurnalist har safar saytga kirib yangilik tekshirish o‘rniga, SI tizimi orqali chiqarilgan har bir xabarni real vaqt rejimida kuzatadi va kerakli holatda jurnalistga xabar beradi [6]. Ayniqsa, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mavzulardagi o‘zgarishlar bo‘yicha yangiliklar zudlik bilan aniqlanib, tahlilga uzatiladi. Yana bir muhim jihat – ijtimoiy tarmoqlarning monitoringi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda axborotning muhim qismi Twitter, Facebook, Telegram, Instagram kabi platformalarda tarqaladi. Biroq u yerda minglab postlar, fikrlar, sharhlar mavjud bo‘lib, jurnalist har birini alohida ko‘zdan kechira olmaydi. Sun‘iy idrok tizimlari aynan mana shu vazifani bajaradi: ular kalit so‘zlar asosida postlarni jamlaydi, muhim mavzularni ajratib oladi, jamoatchilik orasida ko‘p muhokama qilinayotgan voqealarni aniqlaydi.

Sun‘iy idrok orqali ma‘lumotni tahlil qilish soha tadqiqotchilarining asosiy obyektlaridan hisoblanadi. Zamonviy media sharoitida axborotni oddiy yig‘ib olishning o‘zi yetarli emas. Chunki yig‘ilgan ma‘lumotlar son jihatidan ko‘p, lekin sifat jihatidan har doim foydali bo‘lmaydi.

Shuning uchun jurnalistika faoliyatida sun‘iy idrokdan foydalanishning ikkinchi



muhim bosqichida ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ya'ni, ularni saralash, muhimlarini ajratish, yolg'on (feyk) yoki noto'g'ri axborotni tanib olish va nihoyat, jamiyatda qanday tendensiyalar shakllanayotganini aniqlash amaliyoti bajariladi. Aynan mana shu jarayonda sun'iy intellekt vositalari jurnalistga katta yordam beradi. Zamonaviy SI texnologiyalari matnlarni chuqur o'rganib, undagi semantik (ma'noli) aloqalarni aniqlaydi.

Masalan, matnda keltirilgan "shaxslar kim?", "voqea qayerda bo'lgan?", "qachon sodir bo'lgan?", "asosiy harakat nima?" kabi savollar javobini sun'iy idrok avtomatik tarzda aniqlab beradi.

Bu imkoniyatlar natural language processing (NLP), ya'ni tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu texnologiya matnlarni sintaktik va semantik jihatdan tahlil qilib, ma'noli birliklarni ajratadi.

Misol uchun, "Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqandda yangi maktab ochdi" degan jumladan SI "Shavkat Mirziyoyev" – shaxs, "Samarqand" – joy, "maktab ochdi" – harakat sifatida ajratib oladi. Bu esa keyinchalik ushbu axborotni yangiliklar bazasiga joylash yoki qidiruv tizimida topishda foyda beradi.

Sin'iy intellekt funksiyalari orasida mashina o'rganishi (Machine Learning) va chuqur o'rganish (Deep Learning) texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mashina o'rganish sohasidagi yetakchi mutaxassislardan biri Andrew Ng shunday deydi: "Mashina o'rganishi — bu elektr energiyasi kabi. U hayotimizning deyarli har bir sohasiga kirib keladi va uni inqilobiy tarzda o'zgartiradi" [7].

Uning fikricha, elektr energiyasi qanday qilib bir vaqtlar ishlab chiqarish, transport va turmush tarzini butunlay o'zgartirgan bo'lsa, bugungi kunda sun'iy idrok va mashina o'rganish texnologiyalari ham jamiyatga shunday keng ko'lamli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu texnologiyalar bizning hayot tarzimizni, ish jarayonlarini va hatto kundalik muloqot shakllarini ham yangidan shakllantirmoqda.

Bu jarayonlar texnologiyalar rivojlanishi ta'sirida ijodiy sohalarda ham tobora kengroq namoyon bo'lyapti. Chuqur o'rganish orqali nafaqat mavjud ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilinmoqda, balki ilgari kutilmagan yechimlar ham taklif etilmoqda.

Sun'iy idrok orqali feyk yoki deep fake axborotni aniqlash imkoniyati ham mavjud. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan yolg'on videolar, noto'g'ri suratlar yoki manipulyativ sarlavhalarni SI tizimi aniqlab, jurnalistni ogohlantirishi mumkin. Bu, ayniqsa, ijtimoiy muammolar, siyosiy voqealar yoki favqulodda holatlarda ahamiyatli bo'ladi. Ayniqsa, sun'iy idrok yordamida faktcheking, ya'ni axborotni faktlar asosida tekshirish jarayoni ancha tez va samarali amalga oshiriladi.

Sun'iy idrok vositalari tendensiyalarni aniqlaydi. Ya'ni, biror mavzu atrofida vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishlar bo'layotgani, ayni damda qaysi so'zlar, shaxslar yoki voqealar eng ko'p muhokama qilinayotgani aniq ko'rinadi. Misol uchun, agar ijtimoiy



tarmoqlarda “iqlim o‘zgarishi” mavzusi tez-tez tilga olinayotgan bo‘lsa, SI tizimi bu tendensiyani ko‘rsatadi va jurnalistga ushbu mavzu asosida tahliliy maqola tayyorlash uchun imkon yaratadi. Bunday tizimlar odatda trend analysis yoki media monitoring AI vositalari deb yuritiladi.

Shuningdek, sun‘iy idrok yordamida sentiment analysis, ya‘ni kayfiyat tahlili ham amalga oshiriladi. Bu texnologiya orqali foydalanuvchilar izohlari va postlari ijobiy, salbiy yoki neytralligi aniqlanadi. Masalan, hukumat chiqargan yangi qaror haqida odamlar qanday fikr bildirayotganini SI vositalari ko‘rsatib beradi: ko‘pchilik rozimi, norozimi yoki befarqmi. Bu esa jurnalist uchun jamoatchilik kayfiyatini tushunishga va maqola yo‘nalishini aniqlashga katta yordam beradi.

Bugungi kunda jurnalistlar sun‘iy idrok texnologiyalaridan nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy faoliyatlarida ham faol foydalanmoqdalar. Axborot oqimi haddan tashqari ko‘p bo‘lgan hozirgi internet davrida jurnalist uchun eng muhim vazifalardan biri – ishonchli, dolzarb va aniqlangan ma‘lumotni topish, uni tezkor tarzda tahlil qilish va o‘quvchiga yetkazishdan iborat. Sun‘iy idrok aynan shu bosqichlarda ularga katta yordam beryapti. Ayniqsa, yangiliklar monitoringi, ijtimoiy tarmoqlarda trendlarni aniqlash, yolg‘on axborotni ajratish va ko‘p sahifali matnlar ichidan asosiy fikrlarni tanlab olish jarayonlarida SI vositalari jurnalist ishini yengillashtirmoqda [8].

Dunyo tajribasiga nazar solsak, Reuters va Associated Press kabi yirik axborot agentliklari sun‘iy idrok vositalaridan yangiliklarni yig‘ish, muhim postlarni aniqlash va tahririyat xodimlariga tezkor signal berish uchun foydalanmoqda. Ularda AI yordamida ishlaydigan monitoring tizimlari mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy tarmoqlarni yoki boshqa yangilik manbalarini doimiy kuzatib boradi. Misol uchun, zilzila, portlash, favqulodda holat yoki siyosiy bayonotlar haqida birinchi postlar chiqishi bilanoq tizim xabar yuboradi va jurnalistlar ushbu hodisani tekshirib, birinchi bo‘lib yoritishga muvaffaq bo‘ladi [9].

Bundan tashqari, faktlarni avtomatik tekshiruvchi sun‘iy idrok dasturlari ham mavjud. Masalan, The Washington Post tahririyatida “Truth Teller” nomli AI vositasi siyosatchilar chiqishidagi faktlarni real vaqt rejimida tahlil qiladi va ularning to‘g‘riligini aniqlaydi [10]. Yana bir misol, Bloomberg agentligi moliyaviy bayonot va rasmiy hujjatlardan asosiy ma‘lumotlarni qisqa va lo‘nda ko‘rinishda chiqarish uchun sun‘iy idrokdan foydalanadi [11]. Sun‘iy idrok, shuningdek, izohlar va foydalanuvchi munosabatlarini tahlil qilishda ham keng qo‘llanilmoqda. Masalan, New York Times yoki BBC nashrlari foydalanuvchi izohlaridagi tahdidli, salbiy yoki noto‘g‘ri ma‘lumotlarni avtomatik tarzda filtrlaydigan tizimlardan foydalanmoqda.

Xulosa. Media sohasiga sun‘iy intellektning tobora chuqur kirib borayotgani axborot oqimi juda tez, jadal va tobora kengayib borayotgan jarayonda ishlayotgan jurnalistlar uchun xavfsiz va sog‘lom muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Xalqaro tajriba xulosalariga e'tibor qaratsak, ko'p miqdordagi matnli kontentni qisqartirib, xulosa chiqaruvchi "text summarization" texnologiyasi ham ko'plab onlayn nashrlar, xususan, Yahoo News, Buzz Feed va boshqa internet platformalarda amaliyotga joriy etilgan.

O'zbekiston ommaviy axborot vositalari ham bu borada ilk qadamlari bilan e'tiborga molik. Masalan, Daryo.uz (daryo.uz) tahririyati sun'iy idrok asosida maqolalarga avtomatik sarlavha va qisqa sharh (annotatsiya) tayyorlash tizimini testdan o'tkazdi.

Gazeta.uz (gazeta.uz) esa matnlardan shaxs, joy, vaqt kabi muhim faktlarni avtomatik aniqlab beradigan AI vositasidan foydalanishni yo'lga qo'ygan.

Kun.uz (kun.uz) va UzReport (uzreport.news) saytlarida esa videoni matnga aylantiruvchi sun'iy intellekt dasturlari sinov tariqasida qo'llanilgan.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'zA (uza.uz) esa sun'iy idrok asosidagi axborot monitoringi, trendlarni aniqlash va kalit so'zlar asosida yangiliklarni saralash tizimlarini joriy etish bo'yicha loyihalarni boshlagan.

Shunday qilib, jurnalistlar sun'iy idrok texnologiyalaridan real faoliyatda keng foydalanmoqda. Ular bu vositalar yordamida vaqt tejamoqda, sifatli axborotni tezroq topmoqda, soxta ma'lumotlardan himoyalanoqda va eng muhimi – auditoriyaga aniq, lo'nda, ishonchli axborotni tez yetkazishga muvaffaq bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil, 15-yanvardagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" O'RQ-78-sonli Qonuni
2. European Journalism Centre (2021). AI In Journalism :How Artificial Intelligence is Reshaping Newsrooms.
3. Akerkar, R. (2019). "Artificial Intelligence for Business". Springer.
4. Nik Bostrom, Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies
5. Feldman, R. (2013). Techniques and Applications for Information Extraction."Communications of the ACM", 56(4).
6. Marconi, F. (2020). "Newsmakers: Artificial Intelligence and the Future of Journalism". Columbia University Press.
7. Andrew Ng, "What Artificial Intelligence Can and Can't Do (Yet)", Harvard Business Review, 2016
8. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2022). "Speech and Language Processing" (3rd ed.). Stanford University.
9. European Journalism Centre. (2021). "AI in Journalism: How Artificial Intelligence Is Reshaping Newsrooms"
10. The Washington Post. (2020). "Truth Teller Project"
11. Bloomberg. (2021). "Using AI for Financial Reporting"